



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 06 | pp. 73-78 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISH TARTIBI



*Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich*  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada vinochilik sanoati korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritishning maqsadi, vazifalari, amaldagi buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) asosida ularni hisobga olish tartibi, buxgalteriya o'tkazmalari va moliyaviy hisobotlarda yoritish masalalari tahlil etilgan. Xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar asosida mavzuning dolzarbligi asoslangan, taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** tovar-moddiy zaxiralar, vinochilik sanoati, 4-son BHMS, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, sof sotish qiymati, tannarx.

**Аннотация.** В данной статье анализируются цели и задачи учета запасов на винодельческих предприятиях, порядок их учета на основе действующих национальных стандартов бухгалтерского учета (НСБ), учетные операции и вопросы отражения в финансовой отчетности. Актуальность темы обосновывается на основе международной и отечественной научной литературы, разрабатываются предложения и выводы.

**Ключевые слова:** запасы, виноделие, 4-й НСБ, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, чистая реализуемая стоимость, себестоимость.

**Abstract.** This article analyzes the purpose and tasks of inventory accounting at winemaking enterprises, the procedure for their accounting based on the current national accounting standards (NAS), accounting transactions and issues of coverage in financial statements. The relevance of the topic is substantiated on the basis of international and domestic scientific literature, and proposals and conclusions are developed.

**Keywords:** inventory, winemaking industry, 4th NAS, accounting, financial reporting, net realizable value, cost.

**Kirish.** Jahon miqyosida vinochilik sanoati eng yirik qishloq xo'jaligi-sanoat tarmoqlaridan biri hisoblanadi. «Xalqaro uzum va sharob tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda dunyoda 258 mln gektolitr sharob ishlab chiqarilgan bo'lib, jahon bozoridagi savdo hajmi 37 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Mazkur tarmoqda tovar-moddiy zaxiralar umumiy aktivlar tarkibida 35–45% ulushni egallashi korxonalarda ularni samarali hisobga olishni muhim iqtisodiy masalaga aylantiradi» [9].

O'zbekistonda ham vinochilik sanoati sezilarli darajada rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2023 yilgi ma'lumotlariga asosan, mamlakatda 40 dan ortiq litsenziyalangan sharob ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyat yuritmoqda, yillik ishlab chiqarish hajmi 12 mln litrdan oshgan. "Samarqand sharobi", "O'zagrovinprom" va boshqa yirik korxonalarining umumiy aktivlari tarkibida tovar-

moddiy zaxiralar ulushi 30–40% ni tashkil etadi. Shu bilan birga, tarmoqda tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishda metodologik tartibsizliklar, korxonalar o'rtasida yagona yondashuvning yo'qligi moliyaviy hisobotlar sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Vinochilik korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar tarkibi o'ziga xos xususiyatga ega: xom ashyo sifatidagi uzum, yordamchi materiallar, fermentatsiya jarayonidagi yarimfabrikatlar, tayyor mahsulot va savdo tovarlari bir-biridan sifat jihatidan farqlanadi va har biri alohida hisobga olish tartibini talab etadi. Ushbu maqolada 4-son BHMS "Tovar-moddiy zaxiralar" standarti asosida vinochilik sanoati uchun tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritishning ilmiy-metodologik asoslari yoritiladi.

**Adabiyotlar sharhi.** Tovar-moddiy zaxiralar hisobi masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ular ilgari surgan fikrlar va kontseptsiyalar mazkur sohaning nazariy-metodologik asosini tashkil etadi.

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor S.N.Tashnazarovning fikricha «milliy standartimizda tovar-moddiy zaxiralarga berilgan ta'rifda «...ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish» degan jumlaning olib tashlash kerak, deb o'ylaymiz, chunki bu jumlar uzoq muddatda foydalanadigan moddiy aktivlarning ta'rifida ham keltirilgan» [1].

O.A.Levkovich fikriga ko'ra «ishlab chiqarish zahiralari deganda, mehnat predmetlari sifatida foydalaniladigan, qayta ishlash yoki ishlab chiqarish jarayonida yangi foydalanish qiymatini yaratishda yoki iqtisodiy ehtiyojlar uchun foydalanish uchun mo'ljallangan ishlab chiqarish elementlari tushuniladi. Ular to'liq bir ishlab chiqarish siklida iste'mol qilinadi va o'z qiymatini mahsulot (ishlar, xizmatlar) qiymatiga to'liq o'tkazadi» [2].

S.Sedki, A.Smit va A.Striklandlarning fikriga ko'ra, «tovar-moddiy zaxiralar hisobi korxonada tomonidan amalga oshirilgan xarajatlarni to'liq ifoda etishi va investorlar uchun kutilayotgan foyda xususida to'liq axborot berishga xizmat qilishi kerak» [3].

Xo'jalik yurituvchi subektlarning xo'jalik mulkiga egalik qilishi, ishlab chiqariladigan mahsulotlariga qarab tovar-moddiy zaxiralarni quyida aks ettirilgan guruhlariga bo'lish mumkin:

- «1010 schyoti - xom-ashyo va materiallar;
- 1020 schyoti – sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar;
- 1030 schyoti - yoqilg'ilar;
- 1040 schyoti – ehtiyot qismlar;
- 1050 schyoti - qurilish materiallari;
- 1060 schyoti - idish va idishbop materiallar;
- 1070 schyoti - chetga qayta ishlash uchun berilgan materiallar.
- 1080 schyoti - inventar va xo'jalik jihozlari.
- 1090 schyoti - boshqa materiallar» [4].

«Tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritish mobaynida ularni quyidagi tartibda, ya'ni tovar-moddiy zaxiralarning eng kam qiymati bo'yicha baholanadi: a) TMZlar tannarx doirasida mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki moddiy zaxiralarning xarid narxiga transport-tayyorlov xarajatlari qo'shilgan holda; b) sof realizatsiya qiymati doirasida kelishilgan qiymatdan ularni sotishga tayyorlash va sotish bilan bog'liq sarf-xarajatlarni

chegirgandan keyingi qolgan qiymatda» [5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanilgan: mantiqiy tahlil va sintez, statistik va qiyosiy tahlil, monografik va mushohadali metodlar. Maqolani yozishda O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni, 4-son BHMS “Tovar-moddiy zaxiralar”, Iqtisodiyot va moliya vazirligining buyruqlari, 2-son BHXS standarti va vinochilik sanoati korxonalarining moliyaviy hisobotlardagi amaliy ma’lumotlaridan foydalanilgan.


**Tahlil va natijalar.** Vinochilik sanoati korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritishning asosiy maqsadi – korxonaning ishlab chiqarish tsiklida ishtirok etadigan barcha moddiy aktivlar harakatini to‘liq, ishonchli va o‘z vaqtida aks ettirishdan iborat. Bu nafaqat moliyaviy hisobotlar aniqligini ta’minlaydi, balki boshqaruv qarorlari uchun muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: xom ashyo va materiallarning kirib kelishi hamda sarflanishini hujjatlashtirish, ishlab chiqarish jarayonidagi yarimfabrikatlar holatini kuzatish, tayyor mahsulot zaxirasini baholash va sotish jarayonida chiqim sifatida hisobdan o‘chirish, tovar-moddiy zaxiralar ning sof amalga oshiriladigan qiymatini aniqlash va zaxira yaratish; moliyaviy hisobotlarda tovar-moddiy zaxiralar ni to‘g‘ri tasnif qilish.

4-son BHMS “Tovar-moddiy zaxiralar” standartiga muvofiq vinochilik korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar quyidagi toifalarga bo‘linadi: (1) xom ashyo va materiallar – uzum, shakar, idish-tovoq, yorliqlar, qopqoqlar va boshqa yordamchi materiallar; (2) ishlab chiqarishdagi tovarlar – fermentatsiya va tayyor mahsulotdan oldingi jarayondagi vino materiallari; (3) tayyor mahsulot – shisha idishlarga qadoqlangan tayyor sharob, konyak va boshqa mahsulotlar; (4) sotib olingan tovarlar – qayta sotish uchun mo‘ljallangan ichimliklar.

Standart talabiga ko‘ra tovar-moddiy zaxiralar dastlab tannarx asosida baholanadi. Tannarx tarkibiga: xarid narxi, import bojlari, qaytarilmaydigan soliqlar, transport-qadoqlash xarajatlari va boshqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar kiradi. Davr oxirida tovar-moddiy zaxiralar tannarx va sof amalga oshiriladigan qiymatning qaysi biri kichik bo‘lsa, shu asosda balans varaqasida aks ettiriladi [6].

Quyidagi rasmda vinochilik korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar harakatining sxemasi va unga mos hisob tartibi tasvirlangan:



**1-rasm. Vinochilik korxonalarida TMZ harakatining hisob sxemasi**

*Manba: 4-son BHMS asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan*

Yuqoridagi 1-rasmdan ko‘rinib turganidek, vinochilik korxonasida tovar-moddiy zaxiralar harakati to‘rt asosiy bosqichdan iborat bo‘lib, har bir bosqich alohida buxgalteriya hisob raqamiga mos keladi. Rasm xom ashyodan tayyor mahsulotga va

undan sotishga qadar bo'lgan zanjirni yaxlit tasvirlab beradi, bu esa analitik hisobot tuzishda asos vazifasini o'taydi.

4-son BHMS asosida vinochilik korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar harakatini aks ettiruvchi o'tkazmalar tartibi quyida quyidagi 1-jadvalda batafsil keltirilgan.

### 1-jadval

#### Vinochilik sanoati korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalari

Hisob ob'yekti	Buxgalteriya o'tkazmasi (Dt / Kt)	BHMS / Me'yoriy asos
Xom ashyo va materiallar (uzum, shakar, yordamchi materiallar)	Dt 1000 – Kt 6010 (sotuvchidan)	BHMS 4 «Tovar-moddiy zaxiralar»
Ishlab chiqarish jarayoniga berilgan materiallar	Dt 2010 – Kt 1000	BHMS 4, §16-17
Tayyor mahsulot (sharob, konyak va b.)	Dt 2810 – Kt 2010	BHMS 4, §34
Tayyor mahsulot sotilganda	Dt 4010 – Kt 9010 (daromad); Dt 9110 – Kt 2810 (TMZ chiqimi)	BHMS 4, §38; BHMS 2 «Daromadlar»
Ishlab chiqarishdagi tovarlar (fermentatsiya jarayoni)	Dt 2110 – Kt 2010	BHMS 4, §22-24
Tovar-moddiy zaxiralar qadrsizlanishi bo'yicha zaxira	Dt 9430 – Kt 1490 / 2890	BHMS 4, §28-33

*Manba: 4-son BHMS asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan*

Yuqorida keltirilgan 1-jadvalda vinochilik korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar harakatining 6 ta asosiy holati aks ettirilgan. Jadvaldan ko'rinib turganidek, TMZ ni hisobga olishda sintetik hisob raqamlari (1000, 2010, 2110, 2810) bir-birini mantiqiy ravishda kuzatib boradi va chiqim vaqtida 9110-hisob raqami orqali moliyaviy natijaga ta'sir ko'rsatadi. Tovar-moddiy zaxiralar qadrsizlanishi uchun zaxira (1490/2890-hisob raqami) moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlashda alohida ahamiyatga ega.

4-son BHMS ning 36-43-bandlariga muvofiq vinochilik sanoati korxonalarida moliyaviy hisobotlarida tovar-moddiy zaxiralar ga oid quyidagi ma'lumotlarni oshkor etishlari shart:

- Tovar-moddiy zaxiralarni tasniflash va har bir toifa bo'yicha balans varaqasidagi yoki izohlardagi qiymat;
- Hisobot davrida xarajat sifatida e'tirof etilgan tovar-moddiy zaxiralar qiymati (tannarx);
- Tovar-moddiy zaxiralarni sof sotish qiymatgacha kamaytirish va undan qaytish summalari;
- Garov yoki boshqa majburiyatlar ta'minoti sifatida ushlab qolingan tovar-

moddiy zaxiralar qiymati;

➤ Hisob siyosatida belgilangan tovar-moddiy zaxiralar tannarxini aniqlash usuli (FIFO yoki o'rtacha tannarx).

Vinochilik korxonalarini uchun tovar-moddiy zaxiralar ni moliyaviy hisobotlarda aks ettirishda ayniqsa "ishlab chiqarishdagi tovarlar" toifasi alohida diqqat-e'tiborni talab etadi. Yetishtirish muddati bir yildan oshadigan mahsulotlar (masalan, konyak spirti) uzoq muddatli aktivlar toifasida yoki tovar-moddiy zaxiralar tarkibida alohida yoritilishi lozim, bu esa balans varaqasidagi joriy va nojoriy aktivlar tasnif to'g'riligi uchun muhimdir.

**XULOSA.** Birinchidan, vinochilik sanoati korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritish o'ziga xos xususiyatlari tufayli umumiy sanoat standartlariga nisbatan yuqori metodologik talablar qo'yadi. Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, 4-son BHMSning to'liq va izchil qo'llanilishi moliyaviy hisobotlar sifatini oshirish, daromad va xarajatlarni to'g'ri mutanosiblashtirish, shuningdek investorlar va kreditorlar uchun ishonchli moliyaviy axborot ta'minlash imkonini beradi. Vinochilik tarmog'idagi korxonalar tovar-moddiy zaxiralarni kamida to'rt toifaga (xom ashyo, ishlab chiqarishdagi tovarlar, tayyor mahsulot, savdo tovarlari) ajratib hisobga olishi va har biri uchun alohida analitik kartochka yuritishi tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, tovar-moddiy zaxiralar ning sof amalga oshiriladigan qiymatini aniqlash va zarur hollarda zaxira yaratish tarmoq korxonalarida hali tizimli tarzda amalga oshirilmayapti. Buni bartaraf etish uchun korxonalarda har oy oxirida yoki har chorak oxirida tovar-moddiy zaxiralar ning NRV testini o'tkazish va uning natijalarini buxgalteriya o'tkazmalarida va hisobot izohlarida o'z vaqtida aks ettirish joriy etilishi zarur. Bu, xususan, uzoq muddat kamolot jarayonida bo'ladigan konyak spirti va belgilangan muddati o'tgan vino materiallari uchun ayniqsa dolzarbdir.

Uchinchidan, vinochilik sanoatini rivojlantirish davlat dasturlari doirasida tarmoq korxonalarini uchun tovar-moddiy zaxiralar hisobiga oid tarmoq metodologik qo'llanmasi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu qo'llanma 4-son BHMS va 2-son BHXS standartlari o'rtasidagi farqlarni, tarmoq uchun xos hisob ob'yektlari va o'tkazmalar tartibini, shuningdek moliyaviy hisobot izohlarida oshkor etiladigan ma'lumotlar ro'yxatini o'z ichiga olishi lozim. Bunday tizimli yondashuv tarmoq korxonalarini xalqaro hisobot standartlariga yaqinlashtirishga va ularning investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Tashnazarov S.N. Tovar-moddiy zaxiralar tannarxi va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2017 yil.
2. Ladutko N.I. Buxgalterskiy uchyot v promishlennosti: Uchebnoe posobie/ N.I. Ladutko. M.: Knizhny dom, 2005. 688 s.
3. Sam Sedki, Abby Smith, Aissa Striskland. Differences and Similarities Between IFRS and GAAP on Inventory. Revenue Recognition and Consolidated Financial Statements. Journal of Accounting and Finance vol. 14(2) 2014.

4. «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli 4-son BHMS. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. O'razov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari. Monografiya. – T.: Fan, 2005. - 236 b.
6. «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli 4-son BHMS. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
8. International Accounting Standard IAS 2 "Inventories". IASB, London. — 2022.
9. OIV (International Organisation of Vine and Wine). State of the World Vitivincultural Sector in 2023. — Paris: OIV, 2024.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

